

PRESS-RELIZ

O‘zbekiston Jahon banki ko‘magi bilan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni jadallashtiradi

Vashington, 2021-yil 16-dekabr – Jahon banki Ijrochi direktorlar kengashi [Taraqqiyot siyosati operatsiyalari](#) (TSO) doirasida O‘zbekistonga 400 million AQSh dollarlik moliyalashtirishni taqdim etishni ma’qulladi. Uning maqsadi davlat tomonidan mamlakatning inklyuziv va raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini jadallashtirishga yordam beradigan muhim ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishida yordam berishdir.

Ushbu operatsiyalar doirasida O‘zbekistonga 30 yildan ortiq muddatga past foizli 250 million AQSh dollarlik imtiyozli kredit, shuningdek, qaytarish muddati 12 yildan ortiq bo‘lgan 150 million AQSh dollari miqdoridagi kredit bozor foiz stavkasida taqdim etiladi.

Ushbu operatsiya doirasida O‘zbekistonga ko‘rsatilayotgan moliyaviy va texnik yordam hukumatga qator muhim islohotlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ularga quyidagilar kiradi: bug‘doy bozorini yanada liberallashtirish, davlat korxonalari boshqaruvini takomillashtirish, davlat xarajatlari va qarzlari ustidan hisobdorlik va nazoratni kuchaytirish, mehnat bozorida gender asosida kamsitishga qarshi kurashish, kam ta‘minlangan shaxslarning nafaqa bilan ta‘minlanganligini oshirish, shuningdek, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ijtimoiy himoya va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish.

“O‘zbekiston ochiq va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida islohotlarga sodiq ekanligini namoyish etishda davom etmoqda, – dedi **Jahon bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli**. “Hukumatning 2026-yilgacha aholi o‘rtasida kambag‘allik darajasini ikki baravarga kamaytirish va 2030-yilga borib O‘zbekistonning o‘rtacha daromadi yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga qo‘shilishi borasidagi maqsadlariga erishish uchun milliy iqtisodiyot tezroq o‘sishi kerak. Buning uchun xususiy sektorda ko‘proq ish o‘rinlari yaratilishi, fuqarolar, ayniqsa, ayollar, yoshlar va nogironlogi bo‘lgan shaxslar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish kerak bo‘ladi. Ushbu operatsiyalar doirasida Bank tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan islohotlar yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun mustahkam zamin yaratadi va odamlar hayotini yaxshilashga yordam beradi”.

Jahon banki guruhi O‘zbekistonga islohotlarni amalga oshirishning hozirgi sur‘atini saqlab qolish uchun yordam berishda davom etadi. [Mamlakat bilan hamkorlikning yangi dasturini](#) ishlab chiqish doirasida hukumat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor bilan maslahatlashuvlar olib borilmoqda. Unda 2022-2026-yillarda Jahon banki guruhi tomonidan O‘zbekistonga ko‘rsatiladigan moliyaviy va texnik yordamning asosiy yo‘nalishlari belgilab beriladi. Yangi hamkorlik dasturini ishlab chiqish 2022-yil o‘rtalarida yakunlanishi kutilmoqda. U hukumat kelgusi besh yil davomida amalga oshirishni rejalashtirayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi milliy strategiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Jahon banki 2017-2021-yillarda O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasini amalga oshirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatladi. Bugungi kunda bankning mamlakat bo‘yicha dasturiga quyidagi sohalarni o‘z ichiga oluvchi 26 ta loyiha kirgan: iqtisodiyotni boshqarish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, suv resurslarini boshqarish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlari, energetika, transport, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, shahar va qishloq infratuzilmasi, milliy innovatsion tizim va soliq ma‘muriyatchiligi sohasini rivojlantirish, shuningdek, pandemiyaning fuqarolar salomatligi va mamlakat iqtisodiyotiga ta‘sirini yumshatish.

PRESS-RELIZ №: 2022/ECA/46

Bog‘lanish uchun

Toshkent

Mirzo Ibragimov

mibragimov@worldbank.org

Vashington

Sona Panajyan

spanajyan@worldbank.org